

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10843335>

MUSO TOSHMUHAMMAD O‘G‘LI OYBEKNING " BOLALIK XOTIRALARIM" ASARI HAQIDA

Talaba Rixsiboyev Ibroxim Rustam o‘g‘li
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotasiya: Ushbu maqolada Oybekning biografik asari yuzasidan mulohazalar ilmiy nazariy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:hiografiya, biografik asar, tarjimayi hol, hasbi hol, holot, qissa, vaz,va’zxon.

Biz biografik asarlar haqida suhbatlashar ekanmiz avvalo, uning nima ekanligini bilib olmog‘imiz kerak. Biografiya yunoncha so‘z bo‘lib, "hayot","yozaman","tarjimayi hol"."umr tarixi","bitikdagi taqdir ma’nolarini anglatadi. Taniqli adabiyotshunos Abdug‘ofur Rasulov "biografiya"so‘zini Alisher Navoiyning ushbu so‘zga bo‘lgan munosabati bilan bog‘laydi: "Ulug" Alisher Navoiy "hol"so‘zini e’zozlagan va undan unumli,bisyor darajada foydalangan. "Hol" arabiyl so‘z Ko‘pligi "ahvol"yana "holot". Alisher Navoiy "hashi hol", "holot adosi ","holot kayfiyati", "zavqu holot", "parishon holot"singari birikmalardan o‘rnii-o‘rnida foydalangan. "Hol"aslida "biografiya"singari, ruhiy hayot, ma’naviy harakat degani". Bundan ko‘rinadiki, biografiya insonning hayot yo‘li hasbi holi ekan.Biz bundan xulosa qilib, biografik asar ham shunchaki hayot yo‘lini quruq aytib berish deb tushunmasligimiz kerak. Bunday asarda adib o‘quvchiga o‘zining ruhiy holati va his-tuyg‘ularini yetkazib bermog‘i lozim.

Bizga ma’lumki o‘zbek adabiyotida sevimli shoir va yozuvchilarimiz bisyor va biz ularning deyarli barchasining hayoti va ijodi bilan maktab darsliklari orqali

tanishganmiz. Ammo darsliklarda bizning ularga, ularning hayotiga bo‘lgan qiziqishimizni qondiradigan darajada ma’lumot keltirilmagan

Barcha o‘quvchilar ongida ular buyuk daho, oddiy inson qo‘li yetmaydigan cho‘qqi darajasidagi shaxslar gavdalanadi. Go‘yoki ular tug‘ilgandan iste’dodli bo‘lgan,o‘z-o‘zidan yuqori pog‘onaga chiqib ketgan hayot tarzi ham oddiy insonlarnikidan tubdan farq qiladi kabi taassurotlar uyg‘onadi. Ammo biz ularning ham barchamiz kabi insonlar ekanligini, yoshligi ham noodatiy emas, barcha kabi(ko‘cha changitib, turli o‘yin-u janjal to‘polonlar bilan jo‘tganligini ularning oilasi ham daho,olimlar jam bo‘lgan dargohmas, balki, ba’zan hoy ba’zan barcha qatori o‘rtahol, ba’zan kunini zo‘rg‘a to‘rading oilada hatto, ilm-fandan butkul xabarsiz insonlar farzandi ekanligini ular haqidagi esdalik, asosan,o‘zlarining biografik asarlari orqali bilib olishimiz mumkin. Bu haqida Said Ahmad o‘zining "Yo‘qotganlarim va topganlarim"asarida shunday yozadi "Ustozlarimiz umri faqat minbarlarda,olqish,guldiros qarsaklar ostida o‘tgan emas oddiy inson sifatida g‘am-anduh chekkan paytlari ham diliga ozor bergen do‘stilidan ranjigan paytlari ham ko‘p bo‘lgan

Asarlarni tahlil qilishda biografik metod ham mavjud Bu metodga fransuz adabiyotshunosi va adibi Sharl Byor asos solgan deb e’tirof etiladi. Ushbu metoddan adib hayotiga daxldor qismlar aniqlanadi va tahlil qilinadi Ko‘rinadiki, bu metoddan foydalanish uchun, albatta,asar muallifi hayotidan xabardor bo‘lishimiz kerak. Buning uchun biz biografik asarlarga murojaat qilamiz. O zbek adabiyotshunosligida esdalik, biografik asarlar mumtoz adabiyotda ham yozilgan bo‘lsa-da,XX asrga kelib rivojlandi va uning yuksak namunalarini A.Qahhor Ayniy, Oybek kabi o‘zbek so‘z san’atkorlari yaratgan edi Bular orasida Oybekning "Bolalik"("Bolalik xotiralarim "biografik qissasi mashhurdir. Ushbu asarda, Oybekning Bolalik yillari ochiq-oydin haqqoniy, badiiy yaqinda go‘zal tasvirlangan.

"Bola boshidan" deganlaridek Oybek ham juda yosh, besh-olti yoshidan opasi Karomat bilan birgalikda Fuzuliy g‘azallarini yod olgan ularni qanchalik yoqtirishini "sevaman so‘zi bilan ifodalagan.U"Men Fuzuliyni sevaman "deydi Bu orqali adib

o'sha paytdanoq adabiyotini shunchaki yoqtirishi yoki moyilligi bo'lganini emas, chin yuragi bilan unga oshno bo'lganini anglaymiz. Musanning sho'x, shaddod, bir muncha qaysar blga ini (buni o'qituvchisi yog'li non, pul, palovdan hech bo'lmasa birini olib bormasa qo'ymasligidan sezish mumkin, yana boshqa ko'plab o'rnlarda) bilib olamiz. Shunga qaramay u bolalik chog'idanoq san'atga mehr qo'yganini ko'rish mumkin.

Masalan, uning asarida tasvirlashicha o'sha davrda Amazon oyida erta tongda bir tomga chiqib nog'ora chalingan, Musa esa do'stlari bilan tomosha qilgan va nog'oraga ishtiyoqi ohib onasidan 40tiyn(2 tanga) undirib chaqqon, gapga chechan uddaburon do'sti Turg'un bilan borib kichkina nog'ora olib keladi, shuningdek o'sha davrda (Musa katta bo'lib qolgan paytlar Toshkent jadidchilik markazi bo'lgani ma'lum va ular turli joylarda va'zlar o'qib targ'ibot qilib borganlar. Bunday va'zlardan biriga Musa do'sti Turg'un bilan boradi Turg'un bunday narsalarga toqat qilolmas, qizimas Musani o'yinga yo boshqa ishga undaydi In Musa shunchalar berilib va'zga quloq soladiki Turg'unga e'tibor ham bermaydi. Va'zxonning ba'zi gaplariga tushunmasa ham mazmunini anglashga harakat qiladi. bundan tashqari Musa kichkinaligidan boo-boo area, cho'l-biyobonlarga tog'larga chiqishni yaxshi ko'rар uzoq safarlar ham uning joni dili edi. Agarda otasi Toshmuhammad aka ularni Yangiobodga chaqirib qolsa, o'zida yo'q sevinar tezroq borishni mushtoq bo'lib kutardi. Otasi bilan tog'ga dam olgani ketayotganda ham juda quvongan afsuski, otdan yiqilib oyog'i lat yegani tufayli bu baxtga erishilmagan edi. Shunday bo'lsa-da otasi o'g'lida ikodkor qalbi borligini his qilib bir dasta gul olib keladi.

Uning zehni tez.aqli ham joyida edi. Maktabga endi borgan kunidan boshlab alifboni haftiyakni ham sharros aytib berishi, yoshligida katta yoshli yaxshi bilimli o'quvchilarga ularga o'rgatosh aytilganda norozilik qilganligi, ammo vaqt o'tib o'zi ham shu darajaga, ya'ni yosh bolalarga o'rgatishini so'raganida mamnuniyat bilan qabul qilib, chin ko'ngildan bajarishi uning naqadar ochiq-oydin, aqli, ustoziga bo'lgan hurmati ko'rinish turadi. Shu bilan birga biz uni juda aqli orthosis deb tasavvur eta olmaymiz. Chunki o'zi tasvirlaganidek, boshqa bolalar bilan birgalikda, o'qituvchi chiqishi bilan to'polon qilib hammayoqni changitib o'ynab ketishi uning bir muncha

sho‘x ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga Oybek qiziquvchan va ziyrak bo‘lganini ham uning qayerdadir biror voqea yoki janjal bo‘layotganini eshitsa,o‘zidek qiziquvchan do‘sti Turg‘un bilan yetib borishi va onasi buvisi va opasiga barchasini oqizmay-tomizmay aytib berishidan bilish mumkin.

Bu asar davomidagi bir voqea, ya’ni bobosining oldiga bir kampirning kelib arz dod qilishi o‘sha davrning jamiyatning qanday ahvolda ekanligini ochib beradi. Buni G‘afur G‘ulomning "Shum bola qissasida ham ko‘rishimiz mumkin

Asar oxirida esa Musa Xadradagi yangi maktabda o‘qishni boshlaganini uning bolalik davri yakuniga yetganidan dalolat beradi. Adib o‘zining bolaligini shunday xotirlaydi.

Uning keyingi hayotiga qiziquvchilar albatta topilsa kerak Buni G‘afur G‘ulomning Oybek haqidagi xotiralaridan bir muncha bilib olsa bo‘ladi: "Men Oybek bilan juda yoshlikdan ostona hatlab ko‘chaga chiqa boshlagan paytdan ortiqman Mahallamiz bir-biriga yaqin edi Anhorda, Eshvali akaning qo‘sh objuvozi joylashgan yerning Quito Ida, Oqar tarnovda butun yaqin mahallalarning bolalari ichida men ham Oybek ham birga cho‘milardik. Oybek Degrez maktabida men Qo‘rg‘ontegi maktabida boshlang‘ich eski tahlilni oldik. Keyin u"Namuna "maktabiga, men "Hayot "maktabiga ketdik. Bu maktabdan keyin Oybek Leningradga o‘qishga ketdi, men muallimlik qila boshladim..."

"Talant qanchalik katta qanchalik qudratli bo‘lmisin har nechuk yuzada bo‘lmaydi,konga o‘xshab yerning qarida bo‘ladi "deb yozib qoldirgan Oybek haqida A.Qahhor Yosh Musa adabiyotiga san’atga shunday oshiqligi bilan hayoti davomida juda katta to‘sqliarni yengib o‘tdi va serunum, sermazmun ijod qildi. Bu haqda A. Qahhor shunday degan "Oybek 400 yilga teng keladigan 40 yillik ijodiy faoliyatining bir lahzasini ham samarasiz o‘tkazgani yo‘q ". Oybek hatto, umrining oxiriga qadar (kasallik tufayli oyoq-qo‘li falaj bo‘lib,gapirolmay qolganda ham)yuksak matonat ko‘rsatib ijodda to‘xtamadi

Biz yuqorida buyuk yozuvchi shoir olim akademik Musa Toshmuhammad o‘g‘li Oybek haqida uning hayoti harakteri bolaligi haqida bir qancha ma’lumotlarga ega

bo‘ldik. Ammo bizda u haqidagi esdalik va biografik asarlar bo‘lmasa bu natijaga erisha olmagan uni shaxs sifatida o‘rgana olmagan bo‘lar edik Demak adabiyotda esdalik va biografik asarlarning o‘rni katta ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi. Fan, 1967. 136 b.
2. Sadullo Quronov. “O‘tmishdan ertaklar” qissasining yuragi. ziyo.com
3. Abdulla Qahhor.O‘tmishdan ertaklar. «Sharq» nashriyoti. Toshkent-2005.
4. Zarifa Saidnosirova . Oybegim mening.«Sharq» nashriyoti. Toshkent-2005.
5. Naim Karimov. Oybek va Zarifa. “Yangi asr avlodni”. Toshkent-2005.
6. Oybek. Bolalik xotiralarim. “Yangi asr avlodni”. Toshkent-2019.